

“AS-NAFAS” VA “AS-IMMUN” OZIQ – OVQAT QO‘SHILMALARINING TERIGA MAHALLIY ACHISHTIRUVCHI TA’SIRINI ANIQLASH.

*I. R. Asqarov k.f.d, professor, U. M. Turdialiyev t.f.d, professor,
M. M. Xojimatov k.f.d, professor, I. J. Karimov assistent*

Annotatsiya: So‘nggi yillarda dorivor o‘simliklardan foydalanish hamda ularning kuchli davolovchi xossalari va xavfsizligi tufayli tadqiqotchilar e‘tiborini jalb qilmoqda. Shu bilan bir qatorda tabiiy, mutlaqo zararsiz, ekologik toza, yuqori samara beruvchi oziq – ovqat qo‘shilmalarini xalq tabobatida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu keltirilgan maqolada As-nafas va As-immun oziq – ovqat qo‘shilmalarini antiekssudativ faolligini aniqlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: shamollash, karregenin, ekstrakt, kalamush, antiekssudativ faollik, *in vivo*, *in vitro*.

Bugungi kunda kasalliklarni davolashda zamonaviy dori – darmonlarning ko‘pchiligi o‘simlik manbaalaridan olingan. Shuning uchun ayrim o‘simliklar jumladan, karam, loviya, mosh asosida tabiiy oziq – ovqat qo‘shilmalari yaratildi hamda ularning yallig‘lanishga qarshi faolligi, antiekssudativ faolligi, teriga mahalliy achishtiruvchi ta’sirini “karragenin shishi” modeli usuli yordamida o‘rganildi.

Tadqiqot bosqichida oziq – ovqat qo‘shilmalarining yallig‘lanishning har xil komponentlariga ta’sirini ya’ni teriga mahalliy achishtiruvchi ta’sirini o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Shuningdek, teriga mahalliy achishtiruvchi ta’sirini oziq – ovqat qo‘shilmalari kiritilganidan 4 soat o‘tgach va keyingi 7 kun teri testi bo‘yicha ballarda baholadik. Tadqiqotlar 12 ta kalamushda olib borildi, tana vazni 175 ± 12 gr, o‘ng tomon yelkasining 2 ta 2×2 sm yuzali juni qirgildi, ushbu joylarga bir marta teri ustiga distillangan suv surtildi (nazorat), xuddi shunday chap tomonidagi 2 ta joyga oziq – ovqat qo‘shilmalarining 5 % li eritmasidan 0,4 ml miqdorda teri ustiga surtildi.

Tadqiqotning birinchi qadami oziq – ovqat qo‘shilmalari va glitserinning AEF ko‘rsatkichi karragenin shishi modelida baholash bo‘ldi. Karragenin bilan hosil qilingan o‘tkir ekssudativ yallig‘lanish kalamushlarda flogogen kiritilgandan keyin 3 va 24 soatlarda aniqlandi. 1 – jadvalda ko‘rsatilganidek, nazorat kalamushlarida

maksimal darajadagi shish 3 soatdan keyin hosil bo'ldi, bunda oyoq panjasining hajmi boshlang'ich ko'rsatkichiga nisbatan $72,8 \pm 4,6$ % shish kattalashdi, 24 soatdan keyin shish $42,6,0 \pm 6,5$ % ko'rsatkichgacha pasaydi. Xuddi shunday dinamika oziq – ovqat qo'shilmalari va glitserinning kiritilgan guruhlarda saqlandi, biroq bu holatda shishning darajasi kichkinaligi kuzatildi.

Shunday qilib, 20 va 40 mg/kg dozalarda oziq – ovqat qo'shilmalari qabul qilgan kalamushlarga karragenin kiritilganidan 3 soat o'tgach, ularning oyoq panjalaridagi shish $65,1 \pm 1,70$ %; $59,4 \pm 2,12$ va $54,6 \pm 2,68$ % ($p < 0,05$), 24 soatdan keyin mos ravishda $17,4 \pm 3,75$ %; $13,3 \pm 2,61$ va $12,9 \pm 1,94$ % ($p < 0,01$) hajmni tashkil etdi. Nazorat hayvonlariga nisbatan AEF oziq – ovqat qo'shilmalari 20 mg/kg dozada karragenin kiritilgach “As-nafas” oziq - ovqati 3 va 24 soat o'tganidan keyin 31,0 va 65,2 % ko'rsatkichni tashkil etdi, “As-immun” oziq - ovqati 3 va 24 soat o'tganidan keyin 36,6 va 73,4% ko'rsatkichni tashkil etdi, “As-nafas” + “As-immun” oziq - ovqatlari 3 va 24 soat o'tganidan keyin 41,7 va 74,2% ko'rsatkichni tashkil etdi.

Xulosa: Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotlar davomida “As-nafas” va “As-immun” oziq – ovqat qo'shilmalari kalamushlar terisida yallig'lanishni keskin kamaytirishi tajribalarda isbotlandi.

Tadqiqotlar **“Sanitary regulations and standards for the humane treatment of laboratory animals and the Declaration of Helsinki”** Sanitariya qoidalarini va laboratoriya hayvonlariga insoniy munosabatda bo'lish standartlari va Xelsinki Deklaratsiyasi (Butun Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi, Edinburg, 2000 y.), **“CIOMS; the council for international organizations of medical sciences”** Xalqaro tibbiy ilmiy jamiyatlar kengashi, **“Guide for the Care and Use of Laboratory Animal”** Eksperimental hayvonlarni saqlash va ularda tadqiqotlar olib borish kabi xalqaro qoidalariga muvofiq amalga oshirildi.

Tajribalar Biofizika va biokimyo instituti Metabolomika laboratoriyasida hamda Bioorganik kimyo institutlari Farmokologiya laboratoriyasida amalga oshirildi.